

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI  
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI**



**M.SH. MAMATKULOV  
A.M. BABADJANOV  
A.K. AHMEDOV**

**ICHKI AUDIT**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus  
ta'lif vazirligi tomonidan darslik  
sifatida tavsiya etilgan*

**Tashkent  
“IQTISOD-MOLIYA”  
2021**

**UO'K: 338.431.2:**

**KBK:**

**Taqrizchilar:** TMI, „Audit“ kafedrasi dotsenti, i.f.d., A. Avloqulov.  
TIQXMMI, „Iqtisodiyot“ kafedrasi dotsenti, i.f.n. U. Sangirova.

**Ichki audit:** *Darslik* / M.Sh. Mamatkulov, A.M. Babadjanov, A.K. Ahmedov.  
– T.: “Iqtisod-Moliya”, 2021: -208 b.

Ushbu darslikni yaratish zaruriyati bozor iqtisodiyoti talablariga bog'liqdir. Kadrlar tayyorlash milliy ta'lif dasturi bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Oliy ta'lifni tubdan isloh qilish, eng avvalo, hayot talablariga javob beradigan mutaxassislar tayyorlashga qaratilgani muhim vazifadir. Bunday sharoitda boshqaruv qarorlarini qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradigan yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda zamonaviy darslikni yaratish muhim muammo hisoblanadi.

Iqtisodiy fanlar tizimda alohida o'rinn egallaydi. "Buxgalteriya hisobi to'g'risida" gi qonunda nazarda tutilgan asosiy qoida va talablar "ichki audit" fanining mazmunini o'rganishga yangicha yondashishni talab etadi. Darslikda aktsiyadorlik jamiyatlari, firmalari, kompaniyalarining moliyaviy hisob va hisobotning iqtisodiy ma'lumotlarini o'rganishning maxsus uslubiy usullari batafsil bayon etilgan.

Bozor sharoitida audit asosiy fanlardan biri bo'lib, uning bilimi moliya, buxgalteriya hisobi, iqtisod sohasida ishlaydigan barcha mutaxassislar uchun majburiyidir. O'z navbatida, audit muhim va zarur mavzu sifatida moliyaviy va iqtisodiy faoliyatning bir qator muammolarini hal qiladi.

Darslikning asosiy maqsadi – talabalarda iqtisodiy va buxgalteriyaga oid bilimlami qo'llay olishga, korxonalarda ichki audit xizmatining tuzilmaviy bolinmalarini tashkil etish bo'yicha amaliy malakaga ega bolish, ichki auditni o'tkazish, buxgalteriya hujjatlarining baholash mezonlarini ishlab chiqqa olish, hujjatlar, turli xarakterdagи iqtisodiy axborotlar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Darslik 5230900 - Buxgalteriya hisobi va audit (sohalar bo'yicha) mutaxassislari uchun mo'ljallangan, oliy kasbiy ta'lifning davlat ta'lif standartining talablarini hisobga olgan holda "ichki audit" fani bo'yicha o'quv dasturiga asosan tuzilgan bo'lib, talabalar va magistrlar uchun asosiy o'quv adabiyoti sifatida ishlab chiqilgan. Aspirantlar, o'qituvchilar, shuningdek, iqtisodiyot yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlari talabalariga, ichki audit bo'yicha malaka oshirish kurslari tinglovchilariga, buxgalteriya hisobi mutaxassislari va ushu sohada ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar hamda ichki audit masalalari bilan shug'ullanuvchi boshqa shaxslarga bag'ishlangan.

*O'zbekistaon Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2021-yil 23-noyabrdagi 500-sonli buyrug'iga asosan chop etishga tavsiya etilgan (№500-717, 23.11.2021-y.)*

© M. Sh. Mamatkulov, A. M. Babadjanov, A. K. Ahmedov 2021.  
©.“IQTISOD-MOLIYA”, 2021.

## M U N D A R I J A

<b>KIRISH.....</b>	<b>10</b>
<b>I BOB. Moliyaviy nazorat tizimida ichki auditning o‘rni va ahamiyati.....</b>	<b>13</b>
1.1. Korxonani boshqarish tizimida moliyaviy nazoratning o‘rni.....	13
1.2. Moliyaviy nazorat tizimida ichki auditning o‘rni.....	17
1.3. Ichki audit tushunchasi, maqsadi va vazifalari.....	26
1.4. Ichki auditning o‘ziga xos xususiyatlari.....	30
1.5. Ichki auditning tavsifi.....	31
1.6. Ichki audit turlari.....	32
<b>II BOB. Ichki auditning me’yoriy-huquqiy asoslari.....</b>	<b>34</b>
2.1. Ichki nazoratni tashkil qilishda xalqaro talablar.....	34
2.2. O‘zbekiston Respublikasida ichki auditni tartibga solish.....	47
2.3. Ichki audit xizmatining funksiyalari, huquqlari va majburiyatlar.....	50
<b>III BOB. Ichki audit xizmatini tashkil etish.....</b>	<b>53</b>
3.1. Korxona boshqaruvi va uning ahamiyati.....	53
3.2. Ichki nazorat tizimi va ichki auditga qo‘yilgan talablar.....	57
3.3. Ichki nazoratning turlari.....	62
3.4. Korxonada ichki auditni tashkil qilish bosqichlari.....	64
3.5. Ichki audit bo‘limining korxonani boshqa bo‘limlari bilan o‘zaro aloqadorligi.....	67
<b>IV BOB. ICHKI AUDITNI REJALASHTIRISH.....</b>	<b>71</b>
4.1. Ichki auditni o‘tkazish bosqishlari.....	71
4.2. Ichki audit xizmati ishlarini rejorashtirish.....	72
4.3. Audit tekshiruvini o‘tkazish ketma-ketligi.....	73
4.4. Korxonada ichki auditni o‘tkazish tartibi.....	75
4.5. Ichki audit xizmati.....	77
<b>V BOB. Ichki audit usullari.....</b>	<b>83</b>
5.1. Ichki audit metodikasi xususiyatlari.....	83
5.2. Mulk va majburiyatlar inventarizatsiyasi.....	83
5.3. Ko‘rik, tekshiruv, nazorat o‘lchash.....	87
5.4. Alovida olingan hujjatlarni va ularning jamlanmalarini bir turdag va o‘zaro bog‘liq muomalalar yordamida tekshirish usuli.....	90
5.5. Tahliliy amallar.....	94
5.6. Auditorlik tanlash.....	97
5.7. Ichki auditning boshqa usullari.....	106
<b>VI BOB. Ichki auditni o‘tkazish.....</b>	<b>110</b>
6.1. Buxgalteriya hisobi holatini baholash.....	110
6.2. Ishchi hujjatlarni tayyorlash.....	114
6.3. Kichik biznes tashkilotlarida ichki auditning xususiyatlari.....	116
6.4. Kompyuter muhiti tizimida ichki auditni o‘tkazish.....	117
6.5. Alovida filiallarni tekshiruvdan o‘tkazish.....	126
<b>VII BOB. Hisobning alovida bo‘linmalarida ichki auditni o‘tkazish tartibi.....</b>	<b>129</b>
7.1. Pul mablag‘lari bilan bog‘liq muomalalarni ichki auditdan o‘tkazish..	129

7.2. Hisob-kitob muomalalarining ichki auditi.....	131
7.3. Mehnat haqi yuzasidan xodimlar bilan hisoblashishlar ichki auditi.....	134
7.4. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bo‘yicha ichki audit o‘tkazish.	139
7.5. Tovar-moddiy zaxiralar saqlanishi va ular hisobining ichki auditi.....	140
7.6. Moliyaviy natijalar hisobining ichki audit.....	141
<b>VIII BOB. Biznes jarayonlari va risklar ichki auditi.....</b>	<b>145</b>
8.1. Biznes-jarayon tushunchasi.....	145
8.2. „Ishlab chiqarish“ biznes jarayonining ichki auditi.....	149
8.3. „Ishlab chiqarish“ biznes jarayonining ichki auditini o‘tkazish usullari va vositalari.....	154
8.4. Biznes jarayondagi risklar.....	157
<b>IX BOB. Ichki auditning yakuniy bosqichi.....</b>	<b>165</b>
9.1. Ichki audit tekshiruvi bo‘yicha yakuniy hujjatlarni tayyorlash tartibi..	165
9.2. Auditor tomonidan aniqlangan xato va kamchiliklarni bartaraf etish choralarli va ularni qabul qilish tartibi.....	168
9.3. Ichki audit xizmati faoliyati samaradorligini baholash.....	171
<b>TESTLAR.....</b>	<b>174</b>
<b>GLOSSARIY.....</b>	<b>188</b>
<b>ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>	<b>194</b>

## С О Д Е Р Ж А Н И Е

<b>ВВЕДЕНИЕ.....</b>	10
<b>I ГЛАВА. Роль и значение внутреннего аудита в системе финансового контроля.....</b>	13
1.1. Роль финансового контроля в системе управления предприятием.....	13
1.2. Роль внутреннего аудита в системе финансового контроля.....	17
1.3. Понятие, цели и задачи внутреннего аудита.....	26
1.4. Отличительные черты внутреннего аудита.....	30
1.5. Описание внутреннего аудита.....	31
1.6. Виды внутреннего аудита.....	32
<b>II ГЛАВА. Нормативно-правовые основы внутреннего аудита.....</b>	34
2.1. Международные требования к организации внутреннего контроля.....	34
2.2. Регулирование внутреннего аудита в Республике Узбекистан.....	47
2.3. Функции, права и обязанности службы внутреннего аудита.....	50
<b>III ГЛАВА. Организация службы внутреннего аудита.....</b>	53
3.1. Управление предприятием и его значение.....	53
3.2. Требования к системе внутреннего контроля и внутреннему аудиту.....	57
3.3. Виды внутреннего контроля.....	62
3.4. Этапы организации внутреннего аудита на предприятии.....	64
3.5. Взаимодействие отдела внутреннего аудита с другими подразделениями предприятия.....	67
<b>IV ГЛАВА. Планирование внутреннего аудита.....</b>	71
4.1. Направления проведения внутреннего аудита.....	71
4.2. Планирование работы службы внутреннего аудита.....	72
4.3. Последовательность проведения аудиторской проверки.....	73
4.4. Порядок проведения внутреннего аудита на предприятии.....	75
4.5. Служба внутреннего аудита.....	77
<b>V ГЛАВА. Методы внутреннего аудита.....</b>	83
5.1. Особенности методики внутреннего аудита.....	83
5.2. Инвентаризация имущества и обязательств.....	83
5.3. Осмотр, осмотр, контроль измерения.....	87
5.4. Вид отдельно взятых документов и их комплектов и метод проверки с использованием взаимосвязанных обработок.....	90
5.5. Аналитические действия.....	94
5.6. Выбор аудитора.....	97
5.7. Другие методы внутреннего аудита.....	106
<b>VI ГЛАВА. Проведение внутреннего аудита.....</b>	110
6.1. Оценка состояния бухгалтерского учета.....	110
6.2. Подготовка рабочей документации.....	114
6.3. Особенности внутреннего аудита в организациях малого предпринимательства.....	116

6.4. Проведение внутреннего аудита в системе компьютерной среды.....	117
6.5. Проведение проверка отдельные филиалов.....	126
<b>VII ГЛАВА. Порядок проведения внутреннего аудита в обособленных подразделениях бухгалтерского учета.....</b>	<b>129</b>
7.1. Проведение внутреннего аудита оборотов, связанных с денежными средствами".....	129
7.2. Внутренний аудит расчетных операций.....	131
7.3. Внутренний аудит расчетов с работниками по заработной плате.....	134
7.4. Проведение внутреннего аудита основных средств и нематериальных активов.....	139
7.5. Внутренний аудит сохранности запасов и их учета.....	140
7.6. Внутренний аудит учета финансовых результатов.....	141
<b>VIII ГЛАВА. Внутренний аудит бизнес-процессов и рисков.....</b>	<b>145</b>
8.1. Понятие бизнес-процесса.....	145
8.2. Внутренний аудит бизнес-процесса "Производство" .....	149
8.3. Проведение внутреннего аудита бизнес-процесса "производство" методы и средства.....	154
8.4. Риски в бизнес-процессе.....	157
<b>IX ГЛАВА. Заключительный этап внутреннего аудита.....</b>	<b>165</b>
9.1. Порядок подготовки итоговой документации по проверке внутреннего аудита.....	165
9.2. Меры по устранению ошибок и упущений, выявленных аудитором, и порядок их принятия.....	168
9.3. Оценка эффективности деятельности Службы внутреннего аудита.....	171
<b>ТЕСТЫ.....</b>	<b>174</b>
<b>ГЛОССАРИЙ.....</b>	<b>188</b>
<b>СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ.....</b>	<b>194</b>

## C O N T E N T S

<b>INTRODUCTION.....</b>	<b>10</b>
<b>CHAPTER I. The role and importance of internal audit in financial control system.....</b>	<b>13</b>
1.1. The role of financial control in an enterprise management system.....	13
1.2. The role of internal audit in financial control system.....	17
1.3. The concept, purpose and objectives of internal audit.....	26
1.4. Specific features of Internal audit.....	30
1.5. Description of internal audit.....	31
1.6. Types of internal audit.....	32
<b>CHAPTER II. Normative and legal basis of internal audit.....</b>	<b>34</b>
2.1. International requirements in the organization of internal control.....	34
2.2. Regulation of internal audit in the Republic of Uzbekistan.....	47
2.3. Functions, rights and responsibilities of the Internal audit Service.....	50
<b>CHAPTER III. Organization of internal audit service.....</b>	<b>53</b>
3.1. Enterprise management and its importance.....	53
3.2. Requirements for internal control system and internal audit.....	57
3.3. Types of internal control.....	62
3.4. Stages of the organization of internal audit in the enterprise.....	64
3.5. Interrelation of the Internal audit Department with other sections of the enterprise.....	67
<b>CHAPTER IV. Internal audit planning.....</b>	<b>71</b>
4.1. Scroll invasions of internal audit.....	71
4.2. Planning the work of the Internal audit Service.....	72
4.3. The sequence of conducting an Audit .....	73
4.4. The procedure for conducting internal audit in the enterprise.....	75
4.5. Internal audit Service.....	77
<b>CHAPTER V. Internal audit methods.....</b>	<b>83</b>
5.1. Features of internal audit methodology.....	83
5.2. Inventory of property and liabilities.....	83
5.3. Examination, inspection, control measurement.....	87
5.4. A kind of separate receipt documents and their totals and the method of verification with the help of interrelated circulation.....	90
5.5. Analytical activities.....	94
5.6. Choosing an auditor.....	97
5.7. Other methods of internal audit.....	106
<b>CHAPTER VI. Conducting an internal audit.....</b>	<b>110</b>
6.1. Evaluation of accounting status.....	110
6.2. Preparation of working documents.....	114
6.3. Features of internal audit in small business organizations.....	116
6.4. Conducting internal audit in a computer environment system.....	117
6.5. Conducting an inspection of individual branches.....	126
<b>CHAPTER VII. The procedure for conducting internal audit in the alokhi subdivisions of the account.....</b>	<b>129</b>

7.1. Internal audit of cash-related transactions.....	129
7.2. Internal audit of accounting transactions.....	131
7.3. Internal audit of accounts with employees on wages.....	134
7.4. Internal audit of fixed assets and intangible assets.....	139
7.5. Preservation of commodity and material reserves and internal audit of their accounts.....	140
7.6. Internal audit of financial results accounting.....	141
<b>CHAPTER VIII. Internal audit of business processes and risks.....</b>	<b>145</b>
8.1. The concept of business process.....	145
8.2. Internal audit of the business process “production”.....	149
8.3. Internal audit of the “production” business process conducting methods and tools.....	154
8.4. Business risks in the process.....	157
<b>CHAPTER IX. Final stage of internal audit.....</b>	<b>165</b>
9.1. Procedure for preparation of final documents on internal audit.....	165
9.2. Measures to eliminate errors and Omissions identified by the Auditor and the procedure for their adoption.....	168
9.3. Evaluation of the effectiveness of Internal audit Service Activities.....	171
<b>TESTS.....</b>	<b>174</b>
<b>GLOSSARY.....</b>	<b>188</b>
<b>LIST OF LITERATURE.....</b>	<b>194</b>

## KIRISH

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mulkchilik shaklidan qat'i nazar, xo'jalik yurituvchi subyektlarning rahbar xodimlari va xizmatchilari yuqori saviyadagi kasbiy tayyorgarlikka, iqtisodiy-huquqiy bilimga, tajribaga ega bo'lishlari lozim. Ichki auditorlar xo'jalik yurituvchi subyektlar barcha bo'g'inlarini tekshirish bilan shug'ullanib, me'yoriy hujjatlar va qonun talablaridan chetga chiqishlarning vujudga kelish sabablari va faoliyat yo'nalishini yaxshilash imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi. Ichki auditning xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun ahamiyatli tomonlaridan biri, u rahbariyatni boshqaruv qarorlari qabul qilishda tezkor ma'lumotlar bilan ta'minlab turishidir.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarda ichki auditni shakllantirish katta ahamiyatga ega. Chunki, ichki audit o'tkazish tekshiruv natijalarini umumlashtiradi va bu xususdagi axborotni xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariyatiga taqdim etadi.

Ichki auditning vazifasi – xo'jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy hisobotlar tuzilgunga qadar mavjud xato va kamchiliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha ko'rsatmalar berishga asoslanadi. Shunday ekan, har qanday xo'jalik yurituvchi subyektlar o'z xato va kamchiliklarini ichki audit xizmatlari orqali ko'ra olishlari va tuzatishlari maqsadga muvofiqdir. Bu esa, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini takomillashtirish va samaradorligini oshirishga olib keladi.

Shu o'rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2020-yilgi murojaatnomalarida „Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilashni nazarda tutadigan Raqamli iqtisodiyot milliy konsepsiyasini ishlab chiqishimiz kerakligi va shu asosda „Raqamli O'zbekiston–2030“ dasturini hayotga tatbiq etishimiz zarurligini ta'kidlab o'tgan bo'lsalar Hukumatga ikki oy muddatda raqamli iqtisodiyotga o'tish bo'yicha „yo'l xaritasi“ni ishlab chiqish topshiriladi. Unga ko'ra iqtisodiyotimiz rivojining muhim sharti bo'lgan faol investitsiya siyosatini izchil davom ettiramiz, iqtisodiyotimizni jahon bozoriga integratsiya qilish va eksportni qo'llab-quvvatlash ustuvor vazifadir. Kelgusi yili eksport hajmini 30 foizga oshirib, 18 milliard dollarga yetkazishni maqsad qilib qo'ymoqdamiz. Biz eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotga o'tishimiz, ichki bozorda raqobat muhitini shakllantirishimiz zarur<sup>1</sup> deb ta'kidlab o'tdilar.

Iqtisodiyotimizning hozirgi sharoitida aksiyadorlik jamiyatlari va mas'uliyati cheklangan jamiyatlar faoliyatining yanada ravnaq topishi hamda ularning xalqaro miqiyosdagi aloqalari ko'laming kengayishi va rivojlanib borishi nafaqat son, balki sifat jihatidan yuqori saviyadagi audit xizmatlariga bo'lgan talabni oshirmoqda.

---

<sup>1</sup>Manba: 2020-yil 24-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi ma'ruzasi. – Tashkent. „Xalq so'zi“, 2020-yil 25-yanvar.

Respublikamizning xo‘jalik yurituvchi subyektlarida ichki auditni shakllantirish katta ahamiyatga ega. Chunki, ichki audit o‘zi o‘tkazgan tekshiruv natijalarini umumlashtiradi va bu xususida axborotni xo‘jalik yurituvchi subyekt rahbariyatiga taqdim etadi. Biz bilamizki, har qanday ishlab chiqarishda kamchiliksiz ish bo‘lmaydi, yuzaga kelgan xato va kamchiliklarni bizga ichki audit xizmati tekshiruvi olib berishi lozim. Shunday ekan har qanday xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘z xato va kamchiliklarini o‘zлari ko‘ra bilib tuzatishlari maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu esa xo‘jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatlarini takomillashtirish va rivojlantirishga olib keladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagи PQ-4611-son qaroriga 2-ILOVAdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-sentabrdagi „O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida“gi PQ-3946-son qarorining 5-bandiga kiritilgan o‘zgartirishlarda:

a) „2020-yil 1-yanvardan hisobot yili yakuni bo‘yicha quyidagi shartlardan bir vaqtning o‘zida ikkitasiga javob bergen tijorat tashkilotlari ham har yili majburiy auditorlik tekshiruvidan o‘tishi lozim“;

b) „O‘zbekiston Respublikasining „Auditorlik faoliyati to‘g‘risida“gi Qonuniga tegishli o‘zgartirishlar kuchga kiramagan kundan boshlab auditorlik tashkilotlari auditorlik faoliyatini faqat xalqaro buxgalterlar federatsiyasi tomonidan nashr etiladigan xalqaro audit standartlari asosida amalga oshiradi“<sup>2</sup>.

Bugungi kubda jahoning rivojlangan mamlakatlari kompaniyalarida ichki audit funksiyalariga yanada ko‘proq e’tibor qaratilmoqda. Bu kompaniyalar umumjahon integratsiyasi va moliyaviy jarayonlarga, shuningdek, iqtisodiy institutlarga yanada ko‘proq jalg etilayotgani bilan bog‘liq. Ularning faoliyati jahon talablariga va standartlariga javob berishi kerak. Jumladan, xalqaro bozorlarga o‘z aksiyalarini joylashtirishni yoki (undan) kredit olishni istovchi kompaniyalar ichki nazoratning mos keluvchi tizimini yaratishlari zarur. Bunday tizimlar funksiyasini ichki audit Qo‘mitasi yoki ichki audit xizmati bajarishi mumkin.

Ichki auditorlar faoliyati direktorlar kengashi yoki kompaniya rahbariyatining yuqori ijrochi organi ichki auditni kompaniyaning rivojlanishi va gullab-yashnashi uchun o‘zining salmoqli hissasini qo‘shuvchi, korporativ boshqaruv mexanizmining mustaqil bo‘g‘ini sifatida qabul qila boshlagandagina, kuch va ahamiyatga ega bo‘ladi.

Ichki audit, asosan, boshqaruv hisobi tomonidan yaratilgan ishonchli axborotlar bilan ta’minalashga qaratilgan, deb hisoblanadi. Biroq jahon moliyaviy inqirozi inqirozning ta’sir kuchini yumshatish va uning salbiy ta’sirlarining oldini olish

---

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2020-yil 24-fevraldagи „moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida“gi PQ-611-son qaroriga 2-ilova. O‘zA. – Toshkent., 25.02.2020. „O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami“, 2020-yil 2-mart, 8-son, 83-modda.

maqsadi bilan biznes risklar va inqiroz belgilari paydo bo‘lishi haqida ishonchli ma’lumotlar bilan ta’minalash tomonlari uning vazifalarini qayta ko‘rib chiqishga majburlaydi.

Inqirozlar va boshqa bozor omillarining salbiy ta’sir etishini oldini olish va ularga qarshi turishda hamda biznesni yuritishdagi kamchiliklarni, shuningdek, ularning paydo bo‘lishini oldini olishda ichki nazorat tizimi va ichki audit xizmatini samarali tashkil etilishiga imkon beradi.

Shu bois, quyidagi ichki audit xizmati vazifalari birinchi darajaga chiqadi: menejerlar va rahbarlarni nafaqat buxgalteriya hisobi tomonidan, shuningdek, boshqa iqtisodiy axborotlar, tashkilotning boshqa hisob tizimi axborotlari, jumladan, mavjud risklar va inqiroz ko‘rinishlari haqidagi axborotlar bilan ham ta’minalash hisoblanadi.

Turli darajadagi menejerlar o‘zlariga ishonilgan uchastkalarda hisob markazlari, mas’uliyat va nazorat subyektlari hisoblanma borib, yo buxgalteriya hisobida (texnologik, kadrlar hisobi v.b.) moliyaviy axborotlar shakllanadigan ma’lumotlari yaratadilar yoki buxgalteriya hisobi ma’lumotlaridan menejerlar tomonidan foydalilanadigan o‘z axborotlarini yaratish uchun foydalananadilar (moliyaviy, iqtisodiy tahlili v.b.). Shu bois, ichki audit faoliyati sohasi tashqi auditorlarning moliyaviy - iqtisodiy nazoratlaridan keng bo‘lishi lozim, ya’ni ichki auditorlar ichki nazorat tizimi faoliyati orqali tashkilotning boshqa bo‘limlarda ishonchli axborotlar yaratilishini ta’minalashlari kerak.

Bundan tashqari, kompaniyani ichki auditni tashkil qilishga undovchi omillarga mulk egalari va menejmentning kompaniya biznes jarayonlarini tartibga solish borasidagi manfaati ham kiradi. Qator holatlarda bu mablag‘larning ancha solmoqli tejalishiga olib kelishi mumkin.

“Ichki audit” fanining maqsadi talabalarga ichki auditni tashkil qilish va o‘tkazishni o‘rgatish hisoblanadi. Shuningdek, korxonalarda ichki audit xizmatining tarkibiy bo‘limlarini tashkil etish bo‘yicha malaka hosil qilish, ichki auditni fan dasturida tasdiqlangan hajmda o‘rgatish hisoblanadi.

Fanning vazifalari quyidagilar hisoblanadi: ichki auditni tashkil qilish va o‘tkazishning ilmiy asoslarini o‘rganish, ichki audit xizmati xodimlari oldiga qo‘yilishi mumkin bo‘lgan savollar (masalalar) doirasini aniqlash, buxgalteriya hujjatlarini baholash mezonlarini ishlab chiqish, shuningdek, hujjatlar - iqtisodiy axborotlarni tashuvchilar bilan ishlash usulini o‘rganish hisoblanadi.